

**SHAYX AHMAD TAROZIYNING ‘FUNUN UL-BALOG’A’ ASARI
TUZILISHI VA G’OYAVIY MUNDARIJASI (DEVIN DE UISNING
TADQIQOTI ASOSIDA)**

***Muhiddinova Manzura Nuriddin qizi
ToshDO’TAU 1-bosqich magistranti***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar davri aruzshunosligiga doir „Funun ul-balogs” risolasining tuzilishi hamda mazmuni AQSH dagi Indiana universiteti professori, sharqshunos olimi Devin de Uisning tadqiqoti asosida qisqacha tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: XV asr qo’lyozmasi, turkiy risola, aruz janri, fan.

Abstract: In this article, the structure and content of the treatise "Funun al-Balaghah" on the dream science of the Timurid era is briefly analyzed based on the research of Devin de Wees, a professor of the Indiana University in the USA, and an oriental scholar.

Key words: XV century manuscript, Turkish treatise, aruz genre, fann.

Аннотация: В данной статье на основе исследований Девина де Виса, профессора Индианского университета в США, и восточного ученого кратко анализируются структура и содержание трактата «Фунун аль-Балага» о науке о сновидениях эпохи Тимуридов. ученый.

Ключевые слова: Рукопись XV века, турецкий трактат, жанр аруз, фанн.

XV asrning birinchi yarmida Ulug’bek hukmronligi davrida O’rta Osiyoda fan, madaniyat va san’at rivojlanib, misli ko’rilmagan kashfiyotlar qilingani tarixdan ma’lum. Shuningdek, ushbu davrda turkiy adabiyot ham ravnaq topib, adabiyotning turli sohalariga oid bir qancha ilmiy hamda badiiy asarlar yaratilgan. Bu asarlardan biri XV asr aruz janrining noyob namunasi bo’lgan Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs” asaridir.

Asar XV asr Markaziy Osiyo adabiy va madaniy taraqqiyoti haqida qimmatli ma’lumot beruvchi nodir namuna ekanligi bois G’arb sharqshunos olimlarining diqqatiga sazovor bo’lgan. Bulardan biri AQSHdagi Indiana universiteti professori, sharqshunos olimi Devin de Uis bo’lib, asar tahliliga bag’ishlangan „The Predecessors of Nava’I in the „Funun al-balagah” of Shaykh Ahmad b.Khudaydad Tarazi: neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century” („Navoiyning salaflari Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning

asarida:XV asrdan buyon Markaziy Osiyo madaniyatshunosligida unutilgan manba”) nomli tadqiqoti shular jumlasidandir.¹

Devin de Uis tadqiqotidan yetmish yil oldin qo’lyozma Herman Ete tomonidan Bodlian kutubxonasidagi islom qo’lyozmalari katalogining ikkinchi jildida qisqacha tasvirlangan² Ete asar muallifini, uning ikki nomini hamda Ulug’bekka bag’ishlangani, nusxa ko’chirilgan sana va ko’chiruvchining ismini qayd etgan, lekin u asar yozilgan sanani ko’rsata olmagan bo’lsa-da, u uni ritorik va metrik san’at, prosodiya va she’riyatning turli sohalariga oid juda qiziqarli asar sifatida ta’riflab, “turkiy va fors misralari bilan aralashib ketganini “ta’kidlab, uning tuzilishini belgilab beradi. Asarning qiziqarli va kerakli ekanligi Ete tomonidan tasdiqlangan bo’lishiga qaramay, yetmish to’qqiz yil davomida olimlar e’tiborini tortmagan.Faqatgina , H..F.Xofmanning Chig’atoy adabiyoti bo’yicha tadqiqotida qisqacha eslatib o’tilgan³

Devin de Uis tadqiqot ishida dastlab, asar haqida umumiylar ma’lumotlar bergen bo’lib, risolani Temuriylar davrida yozilgani va ushbu davrga oid qimmatli ma’lumotlarni beruvchi manba sifatida baholaydi.Tadqiqot bir necha fasllarga ajratilgan bo’lib,,,”The Manuscript, the Author, the Work” („Qo’lyozma, muallif va ijod”) faslida asarning Oksfordda Bodlian kutubxonasida Elliott 127 shelf belgisi ostida saqlanayotgani va u har bir sahifasi 14 qatordan iborat 139 varoqdan iborat ekanligi haqida ma’lumot berilgan. Bundan tashqari asar o’z davrining Mir K.l.n.ki al-Hajji nomi bilan mashhur kotibi (Ete uni hech qanday izohlarsiz „Mir Kulunki”deb o’qigan) tomonidan hijriy 989, milodiy 1581-yilda Buxoroda ko’chirilgani hamda asarning qismlari haqida ma’lumotlar mavjud

¹ Devin deWEES. The Predecessors of Nava’l in the “Funun al- balaghah”of shaykh Ahmad Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century /Journal of Turkish studies, edited by Sinasi Tekin, 2005, Volume 29.-P. 73-163.

²

Catalogue of the Persian, Turkish, Hindustani and Pushtu Manuscripts in the Bodleian Library, Part II: Turkish, Hindustani, Pushtu and Additional Persian Manuscripts, ed. Hermann Ethé (Oxford: The Clarendon Press, 1930), col. 1225, No. 2170. See the brief comments on the Bodleian collection in the fourth installment of Professor Bimbaum’s survey of Turkic manuscript cataloguing (Eleazar Birnbaum, “Turkish Manuscripts: Cataloguing Since 1960 and Manuscripts Still Uncatalogued,” Part 4: Hungary, Czechoslovakia, Poland, Great Britain, Ireland, The Netherlands, Belgium, France, Germany, Switzerland, Austria, Italy, Finland, United States, Canada,” Journal of the American Oriental Society, 104/2 [1984], pp. 303-314 [p. 306]).

³ H. F. Hofman, Turkish Literature: A Bio-Bibliographical Survey; Section III (Chaghatai), Part I (Authors) (Utrecht, 1969), VI, p. 36, s.v. “Tarazi +” Hofman’s entry simply abbreviates the catalogue description and adds no additional references. Neither Tarazi nor his work is mentioned, however, in Mehmed Fuad Koprillit’s article on Chaghatai literature, which served as a prime organizational source for Hofman’s survey (“Gagatay Edebiyatı,” Islam Ansiklopedisi, vol. 3 [1945], pp. 270-323); elsewhere, indeed. Koprild affirmed that the treatises of Nava’i and Babur on poetics (see below) were the earliest works on this subject in Chaghatai (M. Fuad Koprilt, “Ardz,” elem Ansiklopedist, vol. 1 [1950], pp. 625-653 [p. 653, bibliography]), making it clear that he had not taken note of the Funan al-balaghak’s description in the Bodleian catalogue.

bo’lib, asarning qismlari fan deb nomlanishini yozgan. Ushbu asarning fanlari quyidagilar:

Avvalg’i fanda she’rning aqsomin va anvoyn sharh qilur
Ikkinchi fanda qofiya va radifning qavoyidin bayon aylar.
Uchunchi fanda so’zning badoyin va sanoyin zikr etar
To’rtinchi fanda she’rning taqtı va avzonin taqrir qilur
Beshinchi fanda muammoning usul va arkonin tahrir etur.

Muallif to’rtinchi fanning oxirgi qismi hamda beshinchi ya’ni muammoga bag’ishlangan fan yo’qligi haqida ma’lumot bergen..Bundan tashqari, tadqiqotning bu faslida asarning o’rganilishi, ilmiy ahamiyati va badiiy qimmatini atroflicha yoritib bergen.

Ishning qisqacha mazmuni deya nomlangan faslida esa asarning tarkibiy tuzilishi haqida ma’lumotlar mavjud bo’lib, asar turkiy tilda,,debocha” nomi bilan mashhur bo’lgan kirish qismining eng qadimgi va eng keng namunalaridan biri bilan boshlanadi. Debocha Taroziyning Olloh va payg’ambarga hamdu sanolari, asarning yaratilish sababi haqidagi hikoyasi va homiysi Ulug’bek maqtovidan iboratdir. Quyida debochadan iqtibos keltirilgan:

Hamdu sanoekim, vahmning bodpoysi sonsiz yillar yugursa, aning ibtidosining sarhadig‘a kela bilmagay va shukru sipoiskim, fahmning semurg‘ig‘a adadsiz umrlar uchsa, aning intihosining doirasig‘a eta olmagay; ul zuljalolning hazratig‘akim, azal subhinda inoyat me’mori birla insho quvvatin va imlo qudratin taqte’vu tavsim aylab, bani odamning xotirinda ta’biya qildi, to nazm gavhari va nasr javhari zuhurg‘a kelgay va karomat nuri birla aql chirog‘in yondurub, insonning vujudinda qo‘ydi, to zalolat zulumotindan hidoyat lama’otiga intiqol qilg‘ay va zehn xurdadoyin muammokushoyi mushkulot etti, to sinoat quvvati va istidrok qudrati birla hall va dark aylag‘ay va ta’b (2a) kemasin tafakkur daryosinda g‘avvos ayladi, to maoni lu'lusin nutq tori birla bahr qa’ridin avroq sohilih‘a kelturgay. Va balog‘at shakkaristonin anvoyi sanoe’ birla majalle qildi, to notiqa to ‘tisi parvarish topqay va fasohat gulistonin alvoni baloe’ birla tazyin etti, to til bulbuli og ‘iz qafasi ichinda navog‘a kelgay. Nazm:

*Gar badi gavhari va royi suxan,
On furud omadi ba joyi suxan.*

Mazmuni:

*So ‘z gavhari yomon va ulug‘vormi,
U so ‘z oliy maqom bo‘lib tushdi.*

Fi na’ti-r-rasul a’layhi-s-salotu va-t-taxiyoti tayyiboti farovonu durudi begaron ul mehtari olamg‘avu behtarini Odamg‘avu ul sayyidi Rasul va hodiyi sabil, mufaxxari koinot va xulosayi mavjudotu shahsuvori maydoni balog‘at va bulbuli bo‘stoni fasohat,

sufiyi suffai safohat, ya'ni Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vassallam va alo olihi at-tayyibin va xulofoyi-r-roshidin va ashobihи at tobe'in . Nazm:

Dar na'ti u zaboni fasohat kujo rasad?

*Xud peshi oftob che partaviho dehad!*⁴

Ollohga hamd va payg'ambar s.a.v ga salovotdan so'ng muallif asar yozish sababini sabab-I ta'lif sarlavhasi bilan belgilaydi.

Asarning umumiy tuzilishi quyidagicha:

Fan 1: birinchi fan (f.48-25b), She'riyat turlari bo'yicha, har bir turning asosiy xarakteristikalarini kategoriyalarini tushuntirish bilan, tarkibiy va funksional nuqtai nazardan, she'riy kompozitsiyasining muhim terminologiyasini kiritadi. Taroziy dastlab, she'rning o'n turini-qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarji, musammat, mustazod, mutatavvil va fard tartibida sanab o'tadi va so'ng ularga nisbatan qo'llanilgan turli funksional atamalarga qisqacha to'xtalib o'tadi. Har biri „nav” tarzida batafsilroq tushuntirib o'tiladi.

Fan 2: ikkinchi fan (ff.26a-40b) qofiya bilan bog'liq bo'lib, muallif uni baytning asosiy va belgilovchi xususiyati sifatida tavsiflaydi: Ushbu bo'lim asardagi eng uzun nasriy izohli parchalarni o'z ichiga oladi va turkiy tilda qofiya haqida boshqa qofiyaga oid muhokamalar yo'qligi sababli alohida qiziqish uyg'otadi.

Fan 3: uchinchi fan (40b-76a) “fi's-san'at ash-shi'r” sarlavhasiga ega bo'lib, she'r va nasrda qo'llaniladigan badiiy vositalar yoki ritorik figuralar bilan bog'liq; ikkinchisi singari, bu fan ham boshqa turkiy tillarda qiyosiy antik davr poetikasiga oid asarlarda ko'rib chiqilmagan mavzuga bag'ishlangan bo'lib, keng nasriy tushuntirishlari bilan alohida qiziqish uyg'otadi. Taroziy bu bobda yuzga yaqin badiiy san'atlarni tahlil va tavsif qilgan.

Fan 4: to'rtinchi fan (ff. 76b-139a, chap to'liq emas) “fi avzan ash ash-she'r” sarlavhasi ostida bo'lib, aruz bilan bog'liq. U kengaytirilgan nasr bo'limi bilan boshlanadi- asardagi eng uzun parcha (13 varoq bo'lib, 3 varog'i metrik jadvallar tashkil qiladi) aruz tizimini tanishtirishga xizmat qilgan. Bu fan ahunday boshlanadi:

Bilgilkim, arab ulamosining ittifoqi birla bahr o'n olti kelbtur. Ajam ulamosi so'ngra oriy turub, yigirma to'rt qilibturlar. Faammo, bu zaif tiladikim, ul azizlarning paydo qilg'an bahrlarini qalamg'a keltursa va turkiy iborat birla bayon aylab, har vazng'a turkiy bayttin misol keltursa.

Bu havastin ko'p nusxalarni mutolaa qildiq, netokkim "Aruzi Qustos" va "Aruzi Andalusiy" va "Me'yoru-l-ash'or" va bu tariqa nusxalarning bahrlarinda ko'p g'avvosliq qildiq. Ersa mulohaza andog' tushtikim, bu ilmda ulamo ixtilofi base

⁴ Shayx Ahmad Xudoydod Taroziy “Funun ul- balog'a” ff 1b- 2a

qilibturlar. Ba'zilar o'ksutubturlar. Va ul qoidalarkim, ulamoyi salaf qo'yubturlar, alarning qoidasi birla amal qilsalar, o'n olti bahr paydo bo'lurg'a maqduri bor. Ul sababtin bu zaif ham andog' ixtiyor qildikim, bu bahrlarg'a avval o'n olti bahrkim, mumkinu-l-vujudtur, izofat qilib, tamomin qirq bahr uza muqarrar aylab va ul o'n olti bahrkim, mutaqaddimlar tarkib qilibturlar, burun oni ko'rguzub, ondin so'ngra mutaaxxirlar paydo qilg'anni, taqi.

Emdi ziyoda bo'lg'an bahrlarni(ng) barchani bir silk uzra tortib , musharrax va munaqqah bayon aylab va bu qirq bahrin nechasi xosdur va necha bahrning asli zihofstn qo'por va har bahrning mushtarak sho'basi nechadur va xos sho'basi qaysidur majmu'ini sobit qilib, sharh qilsakim, barchasi o'quq'an kishilarga ma'lum bo'lsa. Va billohu-l-avn va-t-tavfiq⁵

Yuqorida ta'kidlanganidek asarning beshinchi qismi mavjud emas.

Qolaversa, bu asarda o'sha davrning mashhur shoirlari va ularning asarlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud bo'lib, asarning ilmiy hamda badiiy qimmati aruzshunoslikning temuriylar davrida yuksak taraqqiy etganini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Shayx Ahmad Xudoydod Taroziy o'z davrining qomusiy shoiri bo'lib, uning asari adabiyotimiz uchun muhim topilma hisoblanadi. Noyob ilmiy qo'llanma bo'l mish bu asarni yanada kengroq tahlil etish va bu asarga oid G'arb davlat olimlarinng tadqiqotlari bilan tanishib, ular orqali asar haqida batafsilroq ma'lumotga ega bo'lishimiz va keyingi ilmiy izlanishlarimizda bu asar haqida yanada to'liq ma'lumotga ega bo'lib, uni har bir qismini mukammal tahlil etishimiz oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. DeWeese D. The Predecessors of Nava'i in the Funun al-Balaghah of Shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a Neglected Source on Central Asian Literary Culture from the Fifteenth Century // Journal of Turkish Studies. Vol. 29. Festschrift in Honor of Eleazar Birnbaum. Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 2005. P. 73-163.
2. D.Yusupova, Temuriylar davridagi aruzga doir risolalarning qiyosiy tahlili, Monografiya, Toshkent, 2019, 24 bet
3. Catalogue on the Persian, Turkish, Hindustani and Pushtu Manuscripts in the Bodleian Library, Part II: Turkish, Hindustani, Pushtu and Additional Persian Manuscripts, ed. Hermann Ethe (Oxford: The Clarendon Press, 1930), col.1225, No. 2170.
4. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2002, №1, 70-86 bb; 2002, №2 77-90; 2002, №3, 75-91; 2002, №4, 78-91 va hokazo
5. Shayx Ahmad Taroziy, Oksfordagi Bodlian kutubxonasidagi Elliott 127 javonida, 139 varoqdan iborat "Funun al-balag'a" qo'lyozmasi, Buxoroda Mir Husayn Kulangi tomonidan 989/1581 yilda kuchirilgan nusxa,
6. Devin DeWeese, The Predecessors of Nava'I in the Funun Al-Balaghah of Shaykh Ahmad B.Khudaydad Tarazi, 78b

⁵ Shayx Ahmad Xudoydod Taroziy "Funun ul- balog'a"ff 76b-77a